

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIV-IQTISODIVYOT FAKULTETI

Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga tavsiya etildi
“Ijtimoiy ish” kafedrası
mudiri, f.f.n. dots. L.N.Jo`rayev

“ ” _____ 2015-yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: OTA – ONA QARAMOG`IDAN MAHRUM BO`LGAN
BOLALARNI IJTIMOIVY HIMOYALASH TIZIMI

Bajardi: 5520100 – “Ijtimoiy ish”
yo`nalishi 4-bosqich talabasi
Nurbayev Shaxboz

Ilmiy rahbar: “Ijtimoiy ish” kafedrası
mudiri, f.f.n. dots. L.N.Jo`rayev

SAMARQAND – 2015

OTA – ONA QARAMOG’IDAN MAHRUM BO’LGAN BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMI

Kirish

I. bob. Ota – ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni himoya qilishning nazariy metodologik asoslari.

1.1. Ota – ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar huquqdarini himoya qilishning tartibi.

1.2. Ota – ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni aniqlash va g’amxo’rlik ko’rsatish.

II. OTA – ONA QARAMOG’IDAN MAHRUM BO’LGAN BOLALAR HUQUQDARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI

2.1. Ota – ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarga vasiy va homiy belgilash.

2.2. Ota – ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni farzandlikka qabul qilish va ularga tarbiya berish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish sari intilmoqda. Bunday yuksak maqsadga erishishda oilaga bo'lgan munosabat muhim o'rin egallaydi. Chunki oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Har bir oilaning farovonligi, oiladagi naslning sog'lomligi, barkamolligi jamiyat farovonligida, davlatning yuksalishida kafil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, "Jamiyat o'zining ertangi kunini qanday tasavvur qiladi? Biz avvalom bor o'sayotgan farzandlarimiz, mana shu voyaga etayotgan bolalarimiz orqali ertangi kunimizni ko'z oldimizga keltirishimiz kerak. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir"¹. Jamiyat hayotida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas va uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila ham o'z navbatida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud. Ular oilaning avlod yaratish, farzandlarni tarbiyalash, ularni kamolga etkazish, oiladagi iqtisodiy muammolarni hal etish, oila a'zolarining dam olishini va salomatligini tiklash, tabiatga, jamiyatga bo'lgan o'zaro munosabatlarni shakllantirishdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Aslini olganda, oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oila vazifalarining bajarilish jarayoni turli xalqlarda turlichadir. Bu har bir holda alohida olingan xalqlarning mintaliteti, mahalliy urf-odatlari va an'analari bilan uzviy bog'liqdir. Shunisi faxrlanarliki, mazkur masalada millatimiz dunyo millatlari, xalqlari orasida oldingi o'rinlarni egallaydi. O'zbekistonda mavjud 31 mln. aholi 7,5 mln. atrofidagi oilada istiqomat qiladi. Sirasini aytganda, oddiy o'zbek uchun oila deb atalmish tushunchaning mazmun-

¹ "1998 йил-Оила йили». Тўплам. -Т.: Ўзбекистон, 1998. 10-б.

mohiyati, yuki-vazni o'zgachadir. O'zbek oilasida ota bilan bola o'rtasidagi, ona bilan qizlar o'rtasidagi, bobo-buvilar bilan nabiralar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xosdir. Afsuski, so'nggi paytlarda biz oilaviy-huquqiy masalalarda o'ta maqtanadigan darajada bo'lmay qoldik. Qaysidir ma'noda, kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, oila, nikoh deb atalgan muqaddas tushunchalarga "darz ketmoqda". Bunga ko'plab sabab va omillarni ko'rsatish mumkin. eng umumiy holda, bunday darz ketishlarning sabablarini quyidagicha tasniflash mumkin: ijtimoiy, tabiiy va iqtisodiy omillar. Shu ma'noda oila masalalari orasida so'nggi vaqtlarda ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar paydo bo'lib qoldi. Nafaqat paydo bo'lib qoldi, balki ko'payib qoldi. Ammo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Demak, mamlakatimizdagi etnik globalizatsiyaning o'zi ham murakkabdir.

Malakaviy bitiruv ishining o'rganilganlik darajasi: Yuqorida aytganimizdek, oilaviy-huquqiy munosabatlar orasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish masalalari ham onda-sonda bo'lsada, kun tartibida bo'lib turibdi. Ushbu holatlarni yuqoridagi ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy omillardan turib o'rganish, tahlil qilish va muayyan xulosalar berish lozim.

Umuman olganda, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq tadqiqot yagona kompleks tadqiqot sifatida o'rganilmagan bo'lsada, ammo u bilan bog'liq yoki uning atrofidagi masalalar mamlakatimizda va xorijda u yoki bu darajada o'rganilgan. Jumladan, F.Otaxo'jaev¹, R.Muhamedov, I.Zokirov, H.Rahmonqulov⁴, Sh.Shorahmetov, M.Vosiqova, A.Pchelintsova, M.Antokolskaya,⁵ T.Kocherginalar tomonidan masala u yoki bu rakursdan turib o'rganilgan.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Ushbu BMI ishini yozishdan maqsad, oila huquqining salbiy ohangdagi instituti bo'lsada, ota-ona qaramog'idan

³ F.M.Otaxo'jaev. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. -T.: TDYUI. 2005.

⁴ H.R.Rahmonqulov. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. -T.: TDYUI. 2003.-49 b.

⁵ Антокольская М.В. Семейное право. Учебник. -М.: Юристь. 1996. -366 стр.

mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalani o'rganish, tahlil qilish hamda oila qonunchiligida belgilangan normalar bilan turmushdagi shu bilan bog'liq yuz berayotgan voqea-hodisalarning uyg'unligini, vobastaligini o'rganishdan iboratdir. Va o'rganishlar yakuni natijasida amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan muayyan xulosa, echim va takliflarni berishdir.

Shu ma'noda, mazkur maqsadlarni amalga oshirish yo'lida quyidagi hollar tadqiqotning asosiy vazifalari qilib belgilab olindi:

-oila qonunchiligi normalarini, xususan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan normalarni tahlil qilish, bu jarayonda yaqin o'tmishdagi amalda bo'lgan oila qonun hujjatlari bilan bugungi kunda amalda bo'lgan oila qonun hujjatlarini taqqoslash hamda istiqbolda qanday bo'lishi lozim? - degan savollarga javob izlash;

- mazkur sohadagi mamlakatimiz qonun normalari bilan xorijiy mamlakatlar, shuningdek xalqaro huquq normalarini qiyosiy o'rganish va buning natijasi o'laroq xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini (o'rganilayotgan sohadagi) milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yuzasidan amaliy takliflar berish.

Ushbu ishni tayyorlash jarayonida qator manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Oila, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Jinoyat, Mehnat kodekslari, "Mulkchilik to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, jumladan, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi, Voyaga etmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi Nizomlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari va sud amaliyoti materiallaridan faol foydalanishga harakat qilindi.

Malakaviy bitiruvning ishining nazariy va metodologik asoslari. Ishning nazariy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasi, Prezident I.A.Karimov asarlari va qator huquqshunos olimlar, F.Otaxo'jaev, M.Antokolskaya, T.Ayubov, SH.Shorahmetov, R.Muhamedov, A.Pchelintsova, M.Vasikova, X.Rahmonqulov, T.Kochergina, G.Inomjonova, G.Tansiqboyevalarning asarlari, g'oya va fikrlari xizmat qiladi.

Malakaviy bitiruv ishining obyekti va predmeti: Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish masalasiga ilk bor kompleks tarzda, ishining obyekti hisoblanib, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjatlarining izchil tahlili malakaviy bitiruv ishining predmeti hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy tuzilishi: Kirish, 2 ta bob, 4 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Xulosa qismida yuqoridagi boblar va paragraflarda ifodalangan fikrlardan kelib chiqqan xolda umumiy fikrlar xulosalanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining hajmi 60 betni tashkil qildi.

I BOB. OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TUSHUNCHASI

1.1. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish tartibi va huquqiy tabiati.

Har bir inson, har bir oila, jamiyatning muqaddas vazifasi, eng avvalo, qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Konstitutsiyamizda "oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, onalik va bolalik davlat tomonidan himoyalanaadi, voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlari shart"², deb ko'rsatib o'tilgan. Bu ishonchli, huquqiy kafolatlarda xalqimiz bosib o'tgan uzoq va yorqin tarixiy yo'lning betimsol sabog'i, qadim ana`analarimiz aks etib turadi.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabat, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-oqibati birinchi navbatda oilada namoyon bo'ladi.

Aksari hollarda, ayrim oilalarda maishiy buzuq, spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik moddalarini suiste`mol qiluvchi, shuningdek boshqa salbiy sabablari bilan ota-onalik nomiga dog' tushirayotganlar ham yo'q emas.

Bu kabi noxushliklarning oldini olish yoki ularga muayyan ta`sir choralari ko'rish maqsadida qonunchiligimizda bir qator tarbiyaviy choralar nazarda tutilgan. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish qilish ana shunday choralar jumlasiga kiradi.

Ota-onalar bolalarining jismonan va ruhan yetuk, barkamol bo'lib etishlari uchun ularga hech qanday tayziq, ruhan ta`sir etkazishlari mumkin emas. Aks holda, voyaga etmagan, muomalaga layoqatsiz bola ota-onaning unga bo'lgan qo'pol munosabatidan, uning huquqi poymol etilishidan aziyat chekib bir umrga ruhan nosog'lom bo'lib qolishi mumkin"³. Bolaga etkazilgan ma'naviy azob uchun ota-onalar qonun oldida javobgar bo'lib hisoblanadilar.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2012 йил.

³ Нечаева А.М. Правонарушения в сфере личных семейных отношений. -М.: 1991 г.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 148-moddasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish asoslari aniq qilib belgilab qo'yilgan. Unga binoan:

-ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqlari cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Ota-onalar o'zlarining voyaga etmagan farzandlarini to'laqonli moddiy jihatdan ta'minlab, ularning ma'nan va ruhan sog'lom bo'lib voyaga etishlarida bevosita ishtirok etishlari lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar bir taraflama holatni ochib bersa ham, uning mazmun-mohiyatida asosiy e'tibor – bolaning har taraflama etuk, to'laqonli shaxs bo'lib etishishini kafolatlashdan iboratdir.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilinishiga yana bir sabab shuki, ota-onalarning o'z ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishlari yoinki bo'lmasa, aliment to'lashdan bo'yin tovlashlari hisoblanadi. Ushbu holat bo'yicha, qator mutaxassis olimlar o'zlarining fikr-mulohazalarini, takliflarini berib o'tganlar. Jumladan, rus olimasi, Antokol'skaya M.V.ning fikricha, ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum qilinib, bolalari bilan birga yashayotgan (aksari hollarda ota yoki ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'ladi) va farzandi uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni moddiy ta'minot bilan ta'minlamasa, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, ushbu holat bo'yicha ota-onalik majburiyatlarini suiste'mol qilish bo'lib hisoblanadi⁴.

⁴ Антокольская М.В. Семейное право. -М.: 1997 г.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota(ona)ning, prokurorning, shuningdek voyaga etmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning da'vosiga binoan ko'riladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan aliment undirish masalasini hal qilishi lozim bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilinish ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod etmaydi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, davlatimizning Konstitutsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, Konstitutsiyamizning XIV bobi alohida bob sifatida oila masalasiga bag'ishlangan.

Ushbu bobning so'nggi moddasi "...voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", deb normalanadi. Ma'lumki, jamiyatimizda ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik milliy qadriyatlarimiz o'zagiga aylangan. Milliy qadriyatlarimiz ramzi sifatida asosiy qomusimiz ushbu modda ila jahonda yagonadir.

Muborak Hadisi shariflarda ham inson o'z ota-onasiga itoatkor va mehribon bo'lishligi haqida vasiyat qilingan. Rasululloh Sallollohu alayhi va sallam ham "Ollohga shirk keltirmoq va ota-onaga oqlik (itoatsizlik) qilmoq eng katta gunohi azim", deb ataydi. Oilada har bir ota-ona o'z farzandlarining yashashi va kamol

topishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Demak, farzandlar ham o'z navbatida ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim. Aslida jamiyatda ota-onaga g'amxo'rlik qilish har bir kishining, eng avvalo, farzandlik burchi bo'lib, ahloqiy majburiyati hisoblanadi.

Ana shu normaning Konstitutsiyaga kiritilishi ushbu ahloqiy majburiyatni qonuniy burch sifatida mustahkamlanib, Oila kodeksining qator moddalarida o'z ifodasini topgan. Ularning ruhidan voyaga etgan har bir farzand mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shartdir, – degan ma'no kelib chiqadi.

Fuqarolik qonunchiligimizga ko'ra voyaga etgan farzandlar deganda, 18 yoshga to'lgan aqli raso shaxs tushuniladi. Demak, farzandlar o'z ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishga, ularga moddiy va ma'naviy yordam berishga hamda ko'maklashishga majburdirlar. Ular ota-onalari turmushidan xabardor bo'lib, sihat-salomatliklariga har doim e'tibor berishlari lozim.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga etgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod etmaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, voyaga etgan farzandlar va ota-onalar o'rtasida nafaqat majburiyat vujudga kelgan yoki kelmaganidan qat'i nazar, ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Oila qonunchiligiga ko'ra, voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovtasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan hola sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-onaning bolalar yordamiga muhtojligi esa ularning mablag'lari o'zlarining moddiy sharoitlarini tirikchilik minimumi darajasida saqlashlari uchun etmagan vaqtda vujudga keladi.

Farzandlar ixtiyoriy ravishda ota-onalarini moddiy ta'minlamasalar, sud orqali aliment undirilsa-da, farzandlar ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilmaganliklari uchun hech qanday qonuniy choralar belgilanmagan. Lekin odatda,

bunday insofsiz, ota-onasi oldida o'z farzandlik burchlarini eslaridan chiqarib qo'ygan farzandlarga nisbatan sud xususiy ajrim chiqarib, yashash yoki ishlash joylariga ularning ma'naviy qiyofasini muhokama qilish uchun yuborishi mumkin.

Ota yoki onaning bolani o'z tarbiyasiga olib berish haqidagi da'vosi rad qilingan holda bu ota yoki ona otalik yoki onalik huquqidan mahrum qilinmaydi.

Sud amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, nikohdan ajarashyotgan er va xotinlar farzandlarini o'z tarbiyalariga va ta'minotiga olish haqidagi kelishmovchilik natijasida bolalariga nisbatan otalik yoki onalik huquqidan mahrum qilinmoqdalar.

Ushbu toifadagi fuqarolik ishlari yuzasidan tegishli tuman (shahar) vasiylik va homiylik organlarining sudga bergan arizalari asos qilib olinmoqda. Tomonlar ajrashgandan so'ng, otalik yoki onalik huquqidan mahrum qilish haqida sud tomonidan chiqarilgan qaror noqonuniydir. Nega deganda, ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibi va sharti Oila kodeksining 79-moddasida o'z aksini topgan. Biz bular haqida yuqorida aytib o'tdik.

Ota-onalik huquqi fuqarolarning eng oliy va daxlsiz huquqlaridan biri bo'lib hisoblanib, ular bu huquqdan yuqorida sanab o'tilgan asoslar mavjud bo'lgan alohida hollarda, oxirgi chora sifatida mahrum qilinishlari mumkin.

Ko'rsatilgan hollarda, albatta ota-ona hulqida albatta ayb mavjud bo'lgani, ya'ni ota-onalarning voyaga etmagan bolalarni tarbiyalash bo'yicha o'z majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri bajarmaganliklari, bolalarga salbiy ta'sir o'tkazuvchi hulq-atvorlari bilan shug'ullanishlari nazarda tutiladi.

Ota-onalik majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri bajarmaslik – voyaga etmagan bolalariga aliment to'lashdan qasddan bo'yin tovlash, bolalarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri harakatlar sodir qilishga esa, bolalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, shafqatsiz muomalada bo'lish, ularning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyat sodir qilish kabi harakatlar misol bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ota-ona tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish bola tarbiyasining yaxshilanishiga yetarli ta'sir o'tkazmaganligi ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos bo'lmaydi.

Qoida tariqasida, ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ota-onaning xulq-atvorida ayb mavjud bo'lishi shart. Faqatgina mutassil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan ota-onalar, ayblari bor-yo'qligidan qat'i nazar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishlari mumkin. Chunki bunday ota-onalarning harakatlari voyaga etmagan bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligini esdan chiqramaslik kerak.

Nikohdan ajralish ishida ota yoki onaning bolani o'z tarbiyasiga olib berish haqidagi da'vo rad qilinishi mumkin. Sharoitlar o'zgarganda, ya'ni, ota yoki ona bilan bola o'rtasidagi munosabatlar tiklangan, bolaning yashash sharoiti yomonlashgan va boshqa hollarda manfaatdor ota yoki ona bolani o'z tarbiyasiga olib berish haqida qaytadan da'vo qo'zg'atish huquqini saqlanib qoladi.

Voyaga etmagan bolalarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida sud ishda aniqlangan holatlarga muvofiq, Oila kodeksining 44-moddasi 2-qismidagi qoidani hisobga olgan holda da'vo qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar, bolalar tarbiyasi uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishi mumkin⁵.

Sud ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirgan va er xotinga yarashish uchun muhlat berganda, FPKning 263-moddasi va Oila kodeksining 112-moddasiga ko'ra ish ko'rilgunga qadar bolalar ta'minoti uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishga haqli.

Ma'lumki, Oila huquqi oila a'zolari o'rtasida vujudga keladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi va uni hayotga to'g'ri tatbiq etilishini huquqiy jihatdan mustahkamlab beradi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish tushunchasi ham oila huquqining muhim huquqiy institutlaridan hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish masalasi shunchalik bir oddiy, ahloqiy masala bo'lmay, balki rasmiy huquqiy masala sanaladi. Shu ma'noda, ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами. –Т.: Шарқ, 1999. 136-бет.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish aslini olganda, ota-ona uchun eng og'ir jazo hisoblanadi. Shu sababli, ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ota yoki onaning, farzandlikka olgan shaxslarning (yoki ulardan birining) aybli harakati bo'lishi shart. Ota-onalikning har qanday majburiyatlarini bajarmaslik ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos bo'lmaydi. Shuning uchun ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona) ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni, bobo-buvi, boshqa qarindoshlarning), prokurorning, shuningdek voyaga etmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyalar, etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'riladi. Da'vo huquqshunos olim E.Egamberdiyevning fikricha, ya'ni nizoli moddiy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan va muayyan protsessual tartibda ko'rish va hal qilishi uchun sud yoki boshqa vakolatli organda qo'zg'atilgan talab tushunchasi bilan da'voga bo'lgan huquq tushunchasi chambarchas bog'liqdir⁶.

Ma'lumki, vasiylik va homiylik ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan bolalarni ta'minlash, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoyalash maqsadida belgilanadi⁷.

Ayni vaqtda sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (yoki ularning biridan) aliment undirish masalasini ham hal qiladi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlarini ko'rishda ota-ona (yoki ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan prokurorga xabar berishi shart. Ayni vaqtda sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori

⁶ Э.Эгамбердиев. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари. -Т.: Камалак. 1996 йил.

⁷ Ўзбекистон Республикасида "Василий ва хомийлик тўғрисида"ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелдаги 171-сонли қарорига 2-илова. -Т.: Адолат. 1999 йил.

qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirmasini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

Yuqoridagi holar ota-onalik huquqidan mahrum qilish va uning huquqiy tabiatini ochib beradi.

Demak, yuqoridagilardan *birinchidan*, shunday xulosaga kelish mumkinki, ota-onalik huquqidan mahrum qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi va buning natijasida ota-ona qaramog'idjan mahrum bo'lgan bolalalarning huquqlari davlat, jamiyat tomonidan muhofaza qilinar ekan:

1. Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

2. Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasalaridan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

3. Ota-onalik huquqini suiste`mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, shuningdek jismoniy kuch ishlatga yoki ruhiy ta`sir ko'rsatsa;

4. Mutassil ichklikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa;

5. O'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat⁸ sodir qilgan bo'lsalar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishlari mumkinligi qonunchiligimizda belgilab qo'yilgan.

Ikkinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar shunchaki oddiy, ahloqiy maishiy jarayon bo'lmay, balki sud tartibida amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Sud amaliyotini o'rganish jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, aksari hollarda sudlar o'zlari chiqargan ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi hal qiluv qarorlarini qaytadan asossiz tiklaganliklari ma`lum bo'ldi. Chunonchi, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudida 2005 yilda fuqaro Laptev A.M.ga voyaga etmagan farzandi Laptev A.L.ga

⁸ Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani fuqarolik ishlari b'uyicha tumanlararo sudining 2005 yil 20 mayda chiqargan hal qiluv qarori.

nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi tuman prokurorining da'vosiga binoan ishni ko'rib chiqqan. Ishni ko'rish jarayonida sud guvohlarning bergan ko'rsatmalariga, A.M.Laptev yashaydigan fuqarolar yig'inining bergan ma'lumotlariga asosan Anna Mixaylovna Laptevani onalik huquqidan mahrum qilgan⁹. Bunga asosiy sabab, onaning o'z bolasiga bo'lgan shafqatsiz munosabati, farzandi oldida onalik majburiyatini bajarmasligi, farzandini qarovsiz holda qoldirib, uni tilanchilik bilan pul topib olib kelishga o'rgatganligi hisoblanadi. Lapteva onalik huquqidan sudning hal qiluv qaroriga binoan mahrum qilinganidan bir yillar chamasi o'tib, u o'zining xulq-atvorida, oilada o'z mavqeiga ega bo'la boshlaydi, bolalari va o'g'li Andrey Laptevga nisbatan onalik mehrini va tarbiya berishni yangitdan boshlagani uchun uning onalik huquqi sud tomonidan qayta tiklanadi.

To'g'ri, OKning 82-moddasiga binoan ota-onalik huquqining tiklanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Unga ko'ra, ota-onalar (ulardan biri o'z xulq-atvorini, turmush tarzini va yoki bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini) o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkinligi qat'iy qilib belgilanib qo'yilgan.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning ma'lum bir muddati belgilanmaydi, u muddatsiz hisoblanadi. Qonun bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan oilada huquqiy munosabat tugatiladi, deb fikr beradi sivilist olim R.Muhamedov¹⁰. Bizningcha, qonun bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilada ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tugatmaydi. Chunki, har qanday vaziyatda, har qanday sharoitda ham bolalar o'z ota-onalaridan ta'minot olish, meros olish kabi huquqiy munosabatlarga kirisha oladilar. Lekin, ota-onalardan qaysi biri ushbu huquqdan, ya'ni, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsalar, shu farzandga nisbatan bo'lgan barcha huquqlardan mahrum bo'ladilar. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, R.Muhamedov mazkur masalaga bir tomonlama yondoshgan.

⁹ Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек тумани фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судининг 2005 йил 20 майда чиқарган ҳал қилув қарори.

¹⁰ Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарҳлар. -Т.: Адолат. 2000. -167 б.

Asosiy qonunimizning 63-moddasida “Oila-jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo’lish huquqiga ega” deb yozilgan. Ma’lumki, oila jamiyatning muhim bo’g’ini sifatida bolalar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi ota-ona hamda farzandlar o’rtasidagi munosabat nafaqat oila qonunchiligi bilan balki jamiyatda muhim qadriyat sifatida shakllangan ahloq normalari bilan ham tartibga solinadi.

Oila a`zolarining bir-birlariga bo’lgan izzat-hurmati, muomalasi oiladagi madaniyatni ifodalaydi. Bunday oiladagi madaniyat farzandlarning yaxshi tarbiya olishlarida muhim o’rin egallaydi. O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 19-moddasiga muvofiq er-xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar, deb ko’rsatib o’tilgan. Demak, ota-ona o’z farzandlariga nisbatan ham teng huquq va majburiyatlarga ega bo’lib hisoblanadilar. Har bir ota-ona o’z farzandini tarbiyalash va kamolati uchun javobgar hisoblanadilar. Ular o’z bolalarining sog’lig’i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ahloqiy kamoloti haqida g’amxo’rlik qilishlari shart.

Muqaddas Hadisi Sharifda ham “Farzandlaringizni izzat-ikrom bilan birga ahloq-odobini ham yaxshilanganlar” deb xitob qilingan.

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatiga xilof ravishda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalarning huquq va manfaatlari qonun bilan himoyalani, baxtiyor yoshlikni ta`minlanishi ko’zda tutiladi. Bizning hayotimizda bolalarni tarbiya qilishda oilaning rolga alohida ahamiyat beriladi. Mamalakatning yosh fuqarosi qanday bo’lib etishishi ko’p jihatdan oilaga, ayniqsa, onaga bog’liqdir. Jamiyatning boshlang’ich yacheykasi bo’lgan oilada kishilar ma’naviy etuklik oladi, hayotdagi o’z o’rnini chuqur tushuna boshlaydi.

Oila kodeksining 65-moddasiga ko’ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o’z ota-onasini bilishi, ularning g’amxo’rligidan foydalanishi, ular bilan yashash huquqiga ega ekanligi ko’rsatib o’tilgan. Shunday ekan, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo’yicha ota-onaning quyidagi huquq va majburiyatlari bor:

Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatilishi;

Ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan qonuniy vakil ekanliklari hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishlari va shu kabilar qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganida, ota-ona o'z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, ahloqiy kamolotiga zarar etkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlashdan holi bo'lishi kerak.

O'z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-onalar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

Ota-ona alohida yashaganlarida bolalarning qayerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolalarning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning ahloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uni kamoloti uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan berilgan bolalar va ota-onalarning huquq va manfaatlarini qonunlar bilan himoya qilindi.

Ota-onalik huquqini suist`emol qilish deganda bolalar manfaatlariga zid ishni tutishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilik, spirtlik ichimliklar va narkotik moddalar iste`mol qilishga undashni, uni jinoiy harakatga jalb qilishni tushunmoq kerak.

Bolaga nisbatan ota-ona emas, oilaning boshqa a`zolari shafqatsiz munosabatda bo'lsalar, ota-ona bunga qarshilik qilmasa, bu holda ota-onalik huquqi Oila kodeksining 83-moddasiga muvofiq cheklanishi mumkin.

Bolani ota-ona yoki ularning biri bilan qoldirish ota-onaga yoki ularning biriga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'sa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Agar bolani ota-ona (yoki ularning biri) bilan qoldirish oqibatida ularning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Ota-ona yoki ularning bir o'z hulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin olti oy o'tgach, ota-onalik huquqidan mahrum etish to'g'risida da`vo taqdim etishi shart bo'lib hisoblanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (onaning) yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni, bobo, buvi, boshqa qarindoshlarning, shuningdek prokurorning, voyaga etmagan bolalarning huquqini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyalari, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da`vosiga asosan ko'riladi. Da`vo, professor Sh.Shoraxmetovning fikricha, "huquqning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan

manfaatning himoya qilinishi to'g'risida sudga yoki boshqa vakolatli tashkilotga murojaat qilinishi"¹¹ hisoblanadi.

Bu yerda da'vo qo'zg'atish huquqi fuqarolar, davlat manfaatlarini va tashkilotlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini birinchi instantsiya sudida himoya qilishning protsessual vositasi bo'lib ko'rinadi.

Ayni vaqtda, shuni ham eslatish o'rinliki, FKning 11-moddasiga binoan bir qator buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari normalanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- huquqni tan olish;
- huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;
- davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararni to'lash;
- neustoyka undirish;
- ma'naviy zararni qoplash;
- huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;
- davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi¹².

Bular orasida bir qator usullar, chunonchi, huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, ma'naviy zararni qoplash kabilar o'ziga xos ahamiyatga egadir. Shuningdek, ushbu usullar orasida davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb

¹¹ Ш.Шорахметов. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. -Т.: Адолат. 2001. -149 б.

¹² Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. -Т.: Адолат. 1996. -9-10 бетлар.

topish, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi kabi usullar mustaqillik davrida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, muqaddam sobiq totalitar tuzum hukmronlik qilgan yillarda fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashning bu kabi usullari haqida umuman gap-so'z bo'lishi ham mumkin emasdi¹³.

Mazkur masalalarga to'xtalar ekanmiz, yana shuni ham aytmoqchimizki, bugungi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning tub maqsadi – inson va uning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. 1997 yilning 20 mayida muhtaram Prezidentimiz bir guruh huquqshunos olimlar, amaliyotchi yuristlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda uchta sub'ektga alohida to'xtaladilar. Bular – shaxs, jamiyat va davlat. Sho'ro zamonida davlat o'z huquqini yaxshi bilgan va manfaatlarini mustahkam himoya qilgan, davlat manfaatlari jamiyat va inson manfaatlaridan doimo yuqori qo'yilgan¹⁴. Bugungi asosiy vazifa ushbu uchchala sub'ektning asosiy markaziy figurasi hisoblangan shaxs, ya'ni fuqaro manfaatini oliy o'ringa qo'yishdan iboratdir. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda inson va uning sha'ni, qadr-qimmati, manfaatlari oliy qadriyat hisoblanib, u dahlsizdir¹⁵.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari haqida gap ketganda, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish usuliga ham alohida to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, biz qurayotgan jamiyat kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati saridir. Zero, bunday jamiyatda fuqarolar o'z haq-huquqlarini bilishlari, ularni realizatsiya qila olishlari juda muhimdir. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, demokratiyaning darajasi xalq chiqarilayotgan qarorlardan qanchalik xabardorligi, uni qabul qilishda qanchalik ishtiroki hamda ijrosini ta'minlashdagi o'rni bilan belgilanadi¹⁶. Yana amaliyotga murojaat qiladigan bo'lsak, shunday manazarani guvohi bo'lishimiz mumkinki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ota-onalik huquqidan mahrum

¹³ М.Баратов. Янги фуқаролик кодекси.//Хаёт ва қонун. 1997. №5. -23 б.

¹⁴ Каримов И.А. Юсак ҳуқуқий тафаккур – демократик жамият тақозоси. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон. 1998. -27 б.

¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституциясидан. 13-модда.

¹⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон. 1997. -56 б.

qilingan bola qaysi ota yoki onaga nisbatan mahrum qilingan bo'lsa, undan meros, ta'minot olish huquqini saqlab qoladi. Bunga misol tariqasida, Uy-joy ishlab chiqarish ekspluatatsiya birlashmasining da`vogarligidagi "Natali" uy-joy shirkatiga nisbatan uy-joydan chiqarish haqidagi da`vosini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi e`tirozi hisoblanadi. Chunki ushbu uy-joy voyaga etmagan fuqaro Mambetov Alisherga va uni otasi Mambetov Nurlan bilan birga yashash huquqini bergan edi. Chunki Toshkent shahar Chilonzor tumani sudining qaroriga binoan, Mambetov Alisherning onasi Mambetova Guliya onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lib, unga tegishli bo'lgan mol-mulkka, chunonchi uy-joyga uning farzandi ham egalik qilib, foydalanish huquqiga ega ekanligi qonun asosida mavjud edi. Bu yerda da`vo shundan iborat bo'ldiki, Mambetov Nurlan xotini bilan qonuniy nikoh munosabatida turgan bo'lsa-da, lekin ular alohida-alohida yashaganliklari ma`lum bo'lgan. Chunonchi, Mambetova Guliya onalik huquqidan mahrum qilingandan so'ng, eri o'g'lini xotining uyida yashab tarbiyasida ishtirok etishi sud tomonidan aniqlanib berilgan¹⁷. Shu nuqtai-nazarda olib qaraganda, biz yuqorida ta`kidlab o'tganimizdek, shaxs o'zining buzilgan huquqini tiklash uchun da`vo qo'zg'atishga haqli ekanligini yana bir bora qonun asosida ko'rishimiz mumkin. Demak, bu erda uy-joy mulkdorlari shirkatining shikoyati noo'rin bo'lib hisoblanadi.

FPKning 239-moddasiga ko'ra, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar oila-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan turkumdagi ishlarga kiradi. Yuqoridagi kodeksning 149-moddasiga binoan berilgan da`vo arizasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

ariza berilayotgan sudning nomi;

da`vogarning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va yashash joyi;

javobgarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) yashash joyi;

da`vogarning talabi;

¹⁷ Toshkent shahar Chilonzor tumanlararo fuqarolik ishlari b'uyicha sudining 2005 yil 4 sentyabrda chiqargan xal kiluv qarori.

da`vogar o`zining talablariga asos qilib ko`rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar;

arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro`yxati.

Ariza da`vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizalarda, shuningdek ariza kimning manfaatini ko`zlab berilgan bo`lsa, o`sha shaxsning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili ko`rsatilishi lozim.

Mazkur turkumdagi ishlar sudga da`vogar tomonidan ariza topshirilishi bilan boshlanadi. Sudya ishning murakkabligi va xususiyatiga qarab, da`vogarning arizaga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini ham javobgarlarning soniga mutanosib miqdorda taqdim etishga majbur qilishi mumkin. Arizalar sudlarda sudning raisi, uning o`rinbosari yoki sudya tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolik ishi qo`zg`atish masalasini sudya hal qiladi va bu haqda sud ajrim chiqaradi.

Quyidagi hollarda sud arizani qabul qilishni rad etadi:

- ariza sudga ko`rishga tegishli bo`lmasa;
- sudning aynan o`sha taraflar o`rtasida, aynan bir predmet to`g`risida va aynan bir asoslar bo`yicha chiqqan nizo yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoxud da`vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilish yoki taraflarning kelishuv bitimi¹⁸ni tasdiqlash to`g`risidagi ajrimi mavjud bo`lsa;
- sud aynan o`sha taraflar o`rtasida, aynan bir predmet to`g`risida va aynan bir asoslar bo`yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo`lsa;
- taraflar o`rtasida ushbu nizoni ko`rish uchun hakamlar sudi¹⁹ga topshirish to`g`risida shartnoma tuzilgan bo`lsa;
- ish shu suddning sudloviga taalluqli bo`lmasa;

¹⁸ Дарвоқе, амалдаги ФПКда илк бор тарафлар ўртасида келишув битими тузиш имконияти таъминланди.

¹⁹ Афсуски, бугуни кунда мамлакатимизда ҳакамлар суди тўла-тўқис шаклланганича йўқ. Бу борада дастлабки қадамлар қўйилмоқда (Ўзбекистон Республикаси Товар ишлаб чиқарувчилар ва тадбиркорлар палатаси (ҳозирги Савдо-саноат палатаси) томонидан ОБСЕ хомийлигида Тошкентда ўтказилган халқаро семинар тўпламидан. 2004 йил 23 март).

- ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs bergan bo'lsa.

Sudya arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qo'zg'atganidan so'ng, ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda ko'rishga tayyorlaydi. Sudya ishni etarlicha darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi, taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko'rish vaqti va joyi haqida ma'lum qiladi.

Fuqarolik ishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni albatta xabardor qilgan holda sudning ochiq majlisida ko'riladi. Yopiq sud majlisi qonunda nazarda tutilgan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talabi bilan yoki sudning tashabbusi bilan o'tkaziladi.

Ishda ishtirok etuvchilar qatorida prokurorning o'zni alohida ahamiyatga egadir. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to'la mohiyati bo'yicha o'z xulosasini beradi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar bundan mustasno.

FPKning 203-moddasiga ko'ra, birinchi instantsiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qarori hal qiluv shaklida chiqariladi. Sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqaradi.

Bu bir jihatdan O'zbekistonning mustaqillikka erishib, dunyo eshiklari ochilib, dunyo xalqlari bilan o'zaro fikr almashib, bordi-keldilarning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, O'zbekiston shunday bir baynalmilal o'lkaki, undagi 26 milliondan ortiq aholi 136 millatga mansubdir. Shunisi e'tiborliki, bu sohada biz qudratli Xitoy davlatidan ko'ra, baynalmilalroq ekanmiz²⁰.

²⁰ Маълумотларга қараганда, Хитойдаги 1 млрд. 300 млн.дан ортиқ аҳоли 56 миллатга мансуб экан.

1.2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish.

Falsafaning umumiy qonuniyatlariga ko'ra, har bir narsada mantiq yotadi. Uning kategoriyalaridan biri sabab va oqibat bo'lib, unga ko'ra har bir oqibat muayyan shart-sharoitlardan, sabablardan vujudga keladi. O'z navbatida, sabab va shart-sharoitlar muayyan oqibatlar tug'diradi.

Bilishning mazkur dialektik qonuniyatlariga asoslanadigan bo'lsak, ota-onalik huquqidan mahrum qilish qator huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Aslini olganda, huquqiy oqibatlarsiz ham ota-onalik huquqidan mahrum qilishning o'ziyoq naqadar jirkanch, naqadar ayanchlidir. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlanishni istadikki, mazkur masala haqida gap ketganda, G'arb va Sharq mamlakatidagi, xususan o'zbek millati mintalitetidagi o'ziga xosliklar ham e'tiborga molikdir.

Ma'lumki, oila huquqi bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma'noda, oidalagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo'lsa, yuqorida aytganimizdek qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishiga yo'l qo'ymaydi. Aslida yuqoridagi mavzu bo'yicha qalam tebratishdan ko'zlangan maqsad ham ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish va ularni aniqlash, joylashtirish shakllarini o'rganishdan iborat. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlik tufayli vujudga keladigan huquqiy oqibatlar va bunda asosiy e'tibor bolalarning huquq va qonuniy manfaatlari nima bo'ladi, ularning taqdiri qanday bo'ladi? – mazkur savollarga javob izlashdan va ular bo'yicha muayyan javob berishdan iboratdir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, uning manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari himoya qilinish huquqiga ega. Shu ma'noda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onalari zimmasiga yuklatiladi. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki biz so'zlayotganimizdek, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va

bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Vasiylik va homiylik organlari mahalliy organlar bo'la oladi. "Ular voyaga etganlarga nisbatan vasiylikni amalga oshirishi: yosh bolalarga nisbatan – xalq ta'limi bo'limlariga; ruhiy kasal va aqli zaiflarga nisbatan – sog'liqni saqlash bo'limlariga; vasiylikka oluvchilarning boshqa toifalariga nisbatan esa - ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatiladi"²¹.

Ma'lumki, "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"²², "Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya"²³larda aytilganidek, "...barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar".

Ushbu xalqaro hujjatlarda bolaning himoyaga bo'lgan huquqi alohida normalanadi. Voyaga etmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, tabiiyki, u o'z huquq va majburiyatlarini, shuningdek himoya huquqini mustaqil amalga oshira oladi. Bola ota-onalar tomonidan qilinadigan suiste'molliklardan himoyalanish huquqiga ega. Masalan, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, jismoniy kuch ishlatish, ruhiy ta'sir ko'rsatish, bolaning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilish kabilar. Aynan Oila kodeksining 79-moddasi 4-xatboshisida, "ota-ona ota-onalik huquqini susite'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin"ligi normalangan.

Shunisi muhimki, bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (yoki ulardan biri) bolaning ta'lim-tarbiyasida o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganida yo bo'lmasa ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilganida bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, 14 yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunday hollarda

²¹ И.Зокиров. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. -Т.: Адолат. 1996. -42 бет.

²² Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция. Human right fact sheet 10 the rights of the child тўплами. Женева, 1991 йил. -Т.: Адолат. 1996 йил.

²³ Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция. Human right fact sheet 10 the rights of the child тўплами. Женева, 1991 йил. -Т.: Адолат. 1996 йил.

vasiylik va homiylik organi yoki sud bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan tegishli choralar ko'rish shart.

Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlari, xususan, G'arbiy Yevropada, AQSHda bolalarni shaxs sifatida kamol topish jarayoni tezlashmoqda. Bu holat, ayniqsa, bolalarning ma'naviy dunyosida individualizm (har bir masala bo'yicha o'z qarashlariga egalik, boshqalarning ta'sirida bo'lmaslikka intilish, ma'lum ma'noda xudbinlik, boshqalar manfaatini hisobga olmasdan o'z manfaatlarini ustuvor qo'yish) xususiyatlarining yaqqol kuchayishida namoyon bo'lmoqda. Bu holat ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga ega. Salbiy jihati shundan iboratki, bunda asriy bahs – otalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat chuqurlashadi, bolalarning kattalar ta'siridan chiqishi kutilmagan va ba'zan mudhish oqibatlariga olib keladi. Ijobiy tomoni shundaki, bolalar kattalar, ayniqsa, ota-onalar ularga nisbatan o'z huquqlarini suiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaydilar. Masalan, so'nggi yillarda Angliyada o'zlariga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lgan ota-onalarni sudga bergan bolalar soni ancha ko'paydi. Albatta, g'arb bilan Sharq mintaliteti, qadriyatlari o'ziga xos farqlarga ega. Biroq, inson huquqlari nuqtai-nazaridan olganda bolalarni o'z ota-onalari, vasiy, homiylari va boshqa qonuniy vakillari bilan nizolashish imkoniyatlari mavjudmi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Umumiy qoida bo'yicha bola va ota-ona o'rtasidagi munosabatlarni kuzatib borish mahalla, maktab, qo'ni-qo'shni, uchastka militsiya noziri tomonidan amalga oshiriladi. Agar bu munosabatlarda normal tabiiy-isoniy mezonlar buzilsa, birinchi galda yuqoridagi subektlar bong uradilar. Bolaning huquqlarini himoyasi haqidagi masalani vakolatli davlat idoralari (militsiya, sud, prokuratura) oldiga qo'yadilar. Bolaning o'zi ham yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga va idoralarga himoya so'rab murojaat etishga haqli. Biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqimiz bolajon xalq, ota-ona uchun farzand aziz, bola manfaatlarini hamma narsadan ustun. Shu sababli ota-onalar o'z bolalarini qarovsiz tashlab qo'yishi, shafqatsiz munosabatda bo'lishi hollari deyarli kam uchraydi. Ko'p hollarda, ota-onaning bolani tergashi, nazorat qilishi (masalan, muayyan shaxslar bilan muloqotda bo'lmaslik, turli xil ziyofatlar, ulfatchiliklarga qatnashishni taqiqlash va h.k.) bola manfaatlarini nuqtai-nazaridan,

uni halol, barkamol inson bo'lib kamol topishini ko'zlab amalga oshiriladigan harakatlardir.

Biz yuqorida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish xususida so'z yuritmoqdamiz.

Umuman olganda, qonun hujjatlaridagi holatlar va turmushdagi voqeliklardan kelib chiqib, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilgan.

Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek, bunda buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar borligidan xabardor bo'lgan muassasalar (maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim muassasalari, davolash va boshqa muassasa)larning mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bu haqda bolalar turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday xabar olgan kundan boshlab uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi shart bo'lib, bunda bola ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligini aniqlasalar, uni joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minglashi shart bo'lib hisoblanadi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga yoki tarbiyalash muassasalariga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar vasiylik (homiylilik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylilik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Sobiq sovetlar hukumronlik qilgan yillarda uch sub`ektning biri, ya`ni davlat o'z pozitsiyalarini shunchalik mustahkamlagan ediki, oqibatda qolgan sub`ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatleri "ikkinchi plan"ga tushib qolgan edi. Bugungi kunda, O'zbekistonda inson, uning hayoti, erkinligi, sha`ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi²⁴.

Demak, bugungi xulosa shundayki, inson va uning manfaatleri bizning mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. To'g'ri, bu o'rinda davlatning ham mavqeini pasaytirmaymiz. Nazariyotchilar aytganidek, davlatning asosiy ijtimoiy vazifasi uning xududida istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar, millatlar va ellatlar, ijtimoiy va etnik guruhlarning jipsligini ta`minlashdan iborat ekan, davlat bu sohadagi o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonunchilik printsiplari asosida amalga oshiradi.

Demak, gap fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqlariga borib taqalmoqda.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar deganda, shaxsdan ajratib, begonalashtirib bo'lmaydigan, mulkiy xarakterda bo'lmagan huquqlar tushuniladi²⁵.

Darvoqe, shaxsiy nomulkiy huquqlar yurisprudentsiyada fuqarolik-huquqiy munosabatlar predmetining tarkibiy qismini tashkil qilsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarda esa asosiy qismni tashkil qiladi.

Shaxsiy-nomulkiy huquqlar ham o'z navbatida ikki turkumga: mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarga, mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlarga bo'linadi.

Yuqorida ta`kidlab o'tganimizdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish shakllari ham bevosita shaxsiy nomulkiy munosabatlar tarkibiga kirib ketar ekan.

²⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 13-модда. -Т.: Адолат. 1999 йил.

²⁵ И.Зокиров, О.Оқюлов, М.Баратов. Фуқаролик ҳуқуқи: саволлар ва жавоблар. -Т.: ТДЮИ. 2003. -87 бет.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarga misol qilib, intellektual foaliyat natijalarga bo'lgan va mualliflik huquqiga doir munosabatlarni ko'rsatsa bo'ladi. Bu munosabatlar faqat mulkiy huquqlarigina emas, balki ularning shaxsiy huquqlarini ham, chunonchi, asarni o'z nomi bilan yoki nomini ko'rsatmasdan anonim tarzda nashr etish, asarning daxlsizligi huquqlari, ixtironing muallifi bo'lib tanilish huquqi va boshqa huquqlarni ham belgilaydi.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlar FKning 100-moddasida ko'rsatilgan sha`n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si bilan bog'liq munosabatlardan iborat. ya`ni, fuqaroning ushbu ajralmas huquqlariga putur etkazuvchi ma`lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, fuqaro sud orqali raddiya talab qilishga haqli.

Mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlar shaxsning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqlardir. Odatda, shaxsiy-nomulkiy huquqlarni fuqarolik huquqining boshqa ob`ektlari singari tovarlarning umumiy ekvivalenti hisoblangan pulga (muayyan summadagi pulga) almashtirib, tenglashtirib bo'lmaydi. Shaxsiy-nomulkiy huquqlarga shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha`ni va qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi kabilar kiradi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, fuqaro yoki tashkilot o'z sha`niga dog' tushiradigan va qadr-qimmatini, ishchanlik obro'sini pastga uradigan ma`lumotlarning, agar ana shu ma`lumotlarni tarqatuvchi shaxs ularning haqiqat ekanligini isbot qila olmasa, huquqi buzilgan shaxs sud orqali raddiya talab qilishga haqlidir. Bunda qonunan shaxsiy huquqlarni himoya qilishda shaxsning jamiyatda o'z mehnati bilan tutgan o'rni, topgan obro'sini nazarda tutadi. Fuqarolik qonunchiligida bunday qoidalarning bo'lishi shaxslarning huquqlari yana ham kengroq himoya qilinishiga alohida e`tibor berilganligini bildiradi.

Sha`n – fuqaroning muayyan darajada taqdirlanishi, uning ijtimoiy holatidir. Qadr-qimmat esa mazkur holatning sohibi ongida aks ettirilishi, ya`ni, jamiyat tomonidan taqdirlanishiga ko'ra, shaxsning o'z-o'ziga bergan bahosidir.

Ishchanlik obro'si jismoniy yoki yuridik shaxsning fuqarolik muomalasida ishtirok etganidagi insofli yoki insofsiz harakat qilishini bildiradi.

Biron-bir fuqaroning yoki tashkilotning nomiga, sha`niga dog' tushirishga, badnom qilishga, qadr-qimmatini pastga uradigan ma`lumotlarni tarqatishga qonun yo'l qo'ymaydi. Bunday hollarda huquqlari buzilgan shaxslarning, jinoyat qonunchiligi normalari (O'zbekiston Respublikasi JKning 139-140-moddalari) bilan qo'riqlanishi-qo'riqlanmasligidan qat'i nazar, fuqarolik qonunchiligi bilan himoya qilinadi.

Har qanday salbiy ma`lumotlar sha`n va qadr-qimmatni, ishchanlik obro'sini pastga uradigan yoki unga dog' tushiradigan ma`lumotlar hisoblanavermaydi. Fuqarolik qonunida nazarda tutilgan ma`lumotlar, birinchidan, birovning sha`niga dog' tushiradigan yoki qadr-qimmatini, ishchanlik obro'sini pastga uradigan bo'lishi, ikkinchidan, bu ma`lumotlarning tarqatilgan bo'lishi va, uchinchidan, mazkur ma`lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan bo'lishi kerak.

Fuqaroning sha`ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur etkazuvchi ma`lumotlar qaysi ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim.

Bunday ma`lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak.

Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi, lekin u obro'ga putur yetkazuvchi ma`lumotlarni tarqatish usuliga va xarakteriga muvofiq bo'lishi shart.

Demak, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish hozirgi kunda o'ta dolzarb va yechimini kutayotgan muammolardan biri bo'lib hisoblanar ekan. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan, undan ta`minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Ota-onasi (ulardan biri) o'ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola, agar u farzandlikka olingan bo'lmasa, turar-joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar-joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota (ona)si va boshqa qon-qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, jumladan, meros olish huquqini saqlab qoladi.

Bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo'lmagan yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga olib beriladi.

Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy o'tgach yo'l qo'yiladi.

Sudning qaroriga asosan ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-onalar qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan mahrum bo'ladilar. Ushbu huquqlar uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:

- o'z bolalarini shaxsan tarbiyalash;
- bola bilan ko'rishib turish;
- bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- kelajakda voyaga etgan bolalaridan ta'minot olish huquqi;
- vafot etgan bolasidan qonun bo'yicha meros olish.

Ikkinchi guruhga davlat tomonidan shaxsan ota-onalarga beriladigan quyidagi imtiyozlar kiradi:

- dam olish kunlari mehnatga jalb qilishni cheklash;
- qo'shimcha ta'til berish, belgilangan imtiyozli mehnat rejasini qo'llash;

- bola uch yoshga to'lgunicha uni parvarish qilish uchun beriladigan ta'tildan foydalanishlik;

- bolaga 14 yoshga to'lgunga qadar belgilangan to'liq bo'lmagan ish kuni yoki ish haftasini qo'llash;

- besh va undan ko'p bola tuqqan va tarbiyalagan onalarga imtiyozli pensiyalar berish va davlat tomonidan belgilangan boshqa imtiyozlar.

Uchinchi guruh tarkibiga bolalari bo'lgan ota-onalar uchun davlat tomonidan beriladigan turli nafaqa va yordamlar kiradi. Bular:

- bolalari bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam va nafaqalar;

- bola ikki yoshga to'lguncha mehnat bilan band bo'lgan ayollarga bolalari uchun beriladigan nafaqalar;

- 15 yoshga to'lmagan bolaning kasalligi bilan bog'liq vaqtincha mehnatga yaroqsizlik bo'yicha beriladigan nafaqa va boshqalar kiradi.

Yuqorida keltirilgan oqibatlar sababli ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan bolalar o'zlariga tegishli huquq va manfaatlarning himoya qilinishini va amalga oshirilishini tegishli tartibda saqlab qoladilar.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onalarning noqonuniy harakati qaysi voyaga etmagan bolaga nisbatan sodir qilingan bo'lsa, faqat shu bolaga taalluqli bo'ladi. Boshqa voyaga etmagan bolalarga nisbatan esa, ota-onalik huquqi to'la saqlanib qoladi.

Ota-onalik huquqi bolalar voyaga yetguniga qadar ota-ona tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan huquq hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona, avvalo, shu voyaga yetmagan bolaga nisbatan shaxsan uni tarbiyalash huquqidan mahrum bo'ladi, shuningdek bolani tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan vakolatlardan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bolalari fuqarolarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turli xil imtiyozlardan, nafaqa va moddiy yordam olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona, keksayib qolganda, mehnatga qobiliyatsiz va yordamga muhtoj bo'lib qolganda voyaga etgan bolalaridan ta`minot talab qilish huquqini ham yo'qotadi.

Ma`lumki, ota-onalik huquqi ota-onalarning majburiyatlari bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki bolalarni tarbiyalash va ularga ta`minot berish bo'yicha ota-onalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi ular tomonidan ota-onalik huquqlarini amalga oshirilishi hisoblanadi. Ammo, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, mazkur ota-onaning aybi va noqonuniy harakati oqibatida bo'lgani sababli, ular ota-onalik majburiyatidan to'liq ozod qilinmaydilar. Voyaga etmagan bolalarni ta`minlab turish majburiyati, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning bo'ynida saqlanib qoladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona o'z bolalariga ta`minot berish majburiyatidan ozod bo'lmaydi. Chunki bu majburiyatning maqsadi voyaga yetmagan bolani ta`minlashdan iboratdir.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning bola bilan birgalikda bir joyda yashash yoki yashamasligi masalasi ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishni ko'rgan sud tomonidan hal qilinadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona bilan voyaga yetmagan bolaning birga yashashi bolaning tarbiyalanishiga salbiy ta`sir o'tkazmaydi, degan xulosaga kelgan sud masalani ota yoki ona foydasiga ijobiy hal qilishi mumkin. Ota-onalik huquqidan ota va onaning har ikkalasi mahrum qilinganida yoki voyaga etmagan bolani ota-onalik huquqi saqlanib qolgan ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo'lmagan hollarda bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga uni tegishli joyga joylashtirish masalasini hal qilish uchun beriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishlik bunday ota-onaning uy-joyga bo'lgan huquqiga taalluqli emas. Ammo, qonunda belgilangan ayrim hollarda bunday ota yoki ona uy-joydan ko'chirilishi mumkin. Bunday hollarda uy-joydan ko'chirish manfaatdor tarafning yoki prokurorning talabi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslar bolalarni farzandlikka olish, vasiy yoki homiy bo'lish huquqlaridan mahrumdirlar.

Ota-onalik huquqi mahrum qilingan ota-onaning bolasi farzandlikka olinmagan bo'lsa, otasi yoki onasining turar-joyiga bo'lgan o'zining mulkiy huquqini yoki turar-joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Farzandlikka olinmagan bola, shuningdek ota-onalik huquqidan mahrum qilingan otasi yoki onasiga va tug'ishganlik faktiga asoslangan boshqa qarindoshlarga nisbatan bo'lgan barcha mulkiy huquqlarni, shu jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Ayni vaqtda oila qonunchiligi juda "beshafqat emas". Qaytanga, oila qonunchiligining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila uning barcha a'zolarining ma'sulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishi ta'minlashdan iboratdir. Shu ma'noda oila qonunchiligi ota-onalik huquqini tiklash institutini ham normalaydi.

Ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini, turmush tarzini (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan sud tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi ishlar vasiylik va homiylik organining, shuningdek prokurorning ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Ota-onaning (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vosi bilan birga bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish to'g'risidagi talabi ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Agar ota-onalik huquqining tiklanishi bola manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olgan holda ota-onani (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vosini qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

O'n yoshga to'lgan bolaga nisbatan ota-onalik huquqining tiklanishiga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Bola farzandlikka olingan va farzandlikka olish bekor qilinmagan bo'lsa, ota-onalik huquqini tiklashga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning ma'lum bir muddati belgilanmaydi, u muddatsiz hisoblanadi. Qonun bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan oilada huquqiy munosabat tugatiladi. Ammo, ota-onalik huquqini tiklash ham qonunda nazarda tutilgan. Bu hol, albatta, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning o'z hulq-atvorini tuzatishiga qaratiladi. Ota yoki onaning bola bilan aloqasi uzilmaydi, u bilan ko'rishib turish, muloqotda bo'lish unga moddiy yordam berib turish uchun harakat to'xtamaydi, man etilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning hulq-atvorida bola tarbiyasiga nisbatan jiddiy o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligi aniqlansa, bunday hollar, albatta, ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi talablarning asoslilikini ko'rib chiqishni talab qiladi.

Ma'lumki, ota-onalik huquqidan faqat sud qarori bilan mahrum qilinadi. Shu sababdan, ota-onalik huquqini tiklash faqat sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi ishlar da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladi. Da'vogar sifatida ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona, javobgar sifatida esa, bolaning kimning homiyligida turishiga qarab, ota-onalik huquqi saqlangan ota yoki ona, shuningdek, vasiylik va homiylik organi bo'lishi mumkin. Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning da'vo arizasiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi, shuningdek prokurorning ishtirokida ko'rib hal qilinadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning hulq-atvori tuzalganligiga, uning hayotida jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganligiga ishonib, unga bola tarbiyasini ishonish mumkin degan xulosaga kelgan sud, ota-onalik huquqini tiklash haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Shu bilan birga bolani ota-onasiga qaytarish to'g'risidagi masalani hal qiladi.

Boshqa shaxslar tomonidan farzandlikka olingan bolalarga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning huquqi tiklanishi mumkin emas. Bu, albatta, voyaga etmagan bolaning manfaatini ko'zlab amalga oshiriladi. Chunki farzandlikka olingan bolaning tarbiyasini o'z zimmasiga olgan farzandlikka oluvchining manfaatlariga ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yo onaning manfaatini qarshi qo'yish bilan, yangi oilada tarbiya topgan munosabatlarning buzilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Farzandlikka olish bekor qilinmasdan turib ota-onalik huquqini tiklash mumkin emas. Ota-onalik huquqini tiklash bola manfaatiga zid bo'lmasligi kerak va albatta bolaning fikri hisobga olinishi shart. O'n yoshga to'lgan bolaning fikri hisobga olinishi shart. O'n yoshga to'lgan bolaning roziligi bo'lmasa, ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vo sud tomonidan qanoatlantirilmasligi mumkin.

Demak, ota-onalik huquqidan mahrum qilish qator huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Mazkur paragrafni yoritish asosida quyidagi xulosalarga keldik.

*Birinchi*dan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlarini umuman olganda ikki yirik turkumga bo'lish mumkin:

- shaxsiy huquqiy oqibatlar;
- mulkiy huquqiy oqibatlar.

*Ikkinchi*dan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan mahrum bo'ladi.

*Uchinchi*dan, ota-onalik huquqidan mahrum qilishni ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

*To'rtinchi*dan, ota-onaning ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga olib beriladi.

*Beshinchi*dan, ota-ona (ulardan biri) o'z hulq-atvorini, turmush tarzini va bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

II. OTA – ONA QARAMOG’IDAN MAHRUM BO’LGAN BOLALAR HUQUQDARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI

2.1. Ota – ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarga vasiy va homiy belgilash.

Men ushbu BMI orqali ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni himoya qiluvchi organlar va ularni himoya qilish usullari xususida batafsil to’xtalib o’tmoqchiman.

Birinchi navbatda ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lishga quyidagi omillar sabab bo’lishi mumkin:

Ota-ona vafot etganda. Ma`lumki, bolani tarbiyalash ota-ona vazifasidir. Bola o’z ota-onasidan tarbiya olish huquqini davlat ota-onasi vafot etib qarovsiz qolgan bolaga vasiy yoki homiy tayinlash orqali ta`minlaydi.

Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklaganda. OKning 79-moddasida ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqidan mahrum qilishi asoslari ko’rsatilgan bo’lib, ular quyidagilardir:

- ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to’lashdan bo’yin tovlasa. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining²⁶ tushuntirishicha, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo’yin tovlaganlik ota-onalik burchlarini uzluksiz ravishda bajarmaslik, o’z bolalariga qanday bo’lmasin g’amxo’rlik qilmaslikni anglatadi. Tabiiyki, bunday harakat (harakatsizlik) bolani halokatga olib kelishi mumkin;

- uzrsiz sabablarga ko’ra o’z bolasini tug’ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o’xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Bu holat “tug’ruqxona va

²⁶ ”Болалар тарбияси билан боғлиқ бўлган низоларни ҳал қилишда судлар томонидан қонунларни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми Қарори.//Қонун номи билан. 1998.№3. -34 бет.

bolalarni davolash profilaktoriyasi va o'quv-tarbiya muassasasi komissiyalari tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim";²⁷

- ota-onalik huquqini suiste`mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta`sir ko'rsatsa. Ota-onalik huquqini suiste`mol qilish deganda, bu huquqlardan bolalarning manfaatlariga zid ravishda foydalanishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilikka undashni; uni spirtlik ichimliklar va narkotik moddalar iste`mol qilishga undashni, jinoyat qilishda, jinoiy yo'l bilan daromad topishda voyaga etmaganni jalb qilishni tushunmoq kerak, – deyiladi Plenum qarorida.

- muttasil ichiklikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa. Bunday asos bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarni muomalaga layoqati cheklangan deb tanilganidan qat`i nazar amalga oshirilishi mumkin;

- o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini) ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onasi kasal bo'lganda. Ushbu sabab ota-ona qaramog'idan bo'lishning ob`ektiv sababi hisoblanadi (ota-ona vafoti, ozodlikdan mahrum qilish kabi). Og'ir dardga chalingan ota-ona farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanishga imkon topmagach, bolaning hayoti, sog'lig'i uchun xavf tug'ila boshlaydi. "Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi bolaning ota-onasi tomonidan ko'rsatilgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashi lozim"²⁸. Bu fikrga qo'shilgan holda, shuni ham aytib o'tmoqchimizki, kasal bo'lib qolgan ota-ona jismonan bolasiga g'amxo'rlik qila olmaydi. Boshqa jihatdan esa, o'z harakatlari oqibatlarini to'liq anglab yetadi va kimlar farzandiga munosib tarbiya bera olishini biladi.

Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda. Bunday hollarda ota-onaning o'ziga homiylik tayinlanishi lozim bo'ladi. Bolalar

²⁷ "Болалар тарбияси билан боғлиқ бўлган низоларни ҳал қилишда судлар томонидан қонунларни қўллаш амалиёти тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми Қарори.//Қонун номи билан. 1998..№3. -34 бет.

²⁸ М.В.Антокольская. Семейное право. -М.: Юрист. 2000. -307 бет.

ota-onalaridan olinib, vasiylik va homiylik organining qaramog'iga topshiriladi, chunki ota-ona ixtiyorida qoldirish bola uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa. «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konventsiyaga va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir. Ammo hayotda ba'zi sabablarga ko'ra bola ota-onasi g'amxo'rligidan ma'lum muddatga mahrum bo'lib qolishi mumkin. Odatda, vasiylik va homiylik qisqa muddatga emas, balki bola ma'lum yoshga etgunga qadar tayinlanadi. Ushbu holat umumiy qoidadan mustasno bo'lib, bolaga nisbatan qisqa muddatga uning ota-onasi qaytgunga qadar – muddatga vasiy va homiy tayinlanishini nazarda tutadi. Lekin ota-ona bolalarini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari ixtiyoriga qoldirsalar, bolalarga vasiylik yoki homiylik tayinlash shart emas.

Ota-ona bedarak yo'qolganda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homiylk) tayinlash shakllari keng tarqalgan. Biroq, farzandlikka olish uchun bir necha shartlar mavjud bo'lganligi bois, uni amalga oshirish murakkabroq kechadi. Ba'zi hollarda, esa (ota-onalarning vaqtincha boladan uzoqda bo'lishi) bolalarni joylashtirishning bunday shaklini tanlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan ma'sul shaxs bo'lishi talab qilinarkan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga joylashtirilmagan bolalarga vasiy (homiy) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homiylk) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi. Ko'rinib turganidek, vasiylik (homiylk) bolalarni oilada tarbiyalashning eng qulay shaklidir. Ba'zan esa bolani vasiylik (homiylk)ka olgan

shaxslar bilan bola o'rtasida juda yaqin munosabatlar paydo bo'lib, vasiy (qomiy) bolani farzandlikka olgan hollar ham uchrab turadi.

Demak, ota-ona o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa vasiylik va homiylik organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiylilik) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim.

Vasiylik va homiylik fuqarolik huquqi instituti sifatida namoyon bo'lganda ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zan fuqarolik-huquqiy munosabatida ishtirok etishi lozim bo'lgan ayrim fuqarolar to'la muomala layoqati yoshiga etgan bo'lsalarda, o'zlarida mavjud bo'lgan ba'zi bir aqliy va ruhiy kamchiliklar tufayli muomalaga layoqatsiz bo'ladilar. Shuning uchun bunday shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtirok etadigan bo'lsalar, o'zlarining hatti-harakatlarini lozim darajada yurita olmaydilar, chunki ular normal harakat qila olmaydilar, o'z ishlari yuzasidan munosib hisob bera olmaydilar, shuningdek manfaatlariga ziyon etkazilayotganligini anglay olmaydilar. Bunday hollarda ularga nisbatan boshqalarning g'amxo'rlik qilishi kerak bo'ladi. Bunday fuqarolar ustidan tegishli nazorat olib borish, ularga yordam berish va vasiylik qilish uchun maxsus kishilar hamda muassasalar jalb qilinadi.

Sistematik ravishda ichkilikka berilish va giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilish tufayli o'ziga qarashli mulkni behuda isrof qiluvchi va oila a'zolarini tirikchilik mablag'laridan mahrum etuvchi shaxsning muomala layoqati sud yo'li bilan cheklanishi mumkin. Ularga nisbatan homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni o'zi mustaqil tuzishga haqli bo'lib, boshqa barcha mulkiy xarakterdagi bitimlarni tuzish, shu jumladan ish haqini ham tasarruf etish uchun homiysining roziligini olishi lozim.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning hulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa etarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) o'z hulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqargandan keyin olti oy o'tgach,

ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etishi shart. Vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi da'vo bolaning yaqin qarindoshlari, voyaga etmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmasiga yuklatilgan organlar va muassasalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

FPKning 199-moddasida prokurorning xulosasi berilgan bo'lib, unga binoan ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to'la mohiyati bo'yicha o'z xulosasini berishi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar esa bundan mustasno ekanligi belgilanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarni ta'minlash majburiyatidan ozod etmaydi. Shu tufayli da'vo qo'zg'atilgan-qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar birgalikda hal etilishi shartligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ko'rsatib o'tilgan²⁹.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'riladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, vasiylik va homiylik organlari vasiylikka yoki homiylikka berilayotgan shaxs to'g'risida huyidagi hujjatlarni tayyorlab beradilar:

- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (pasport) nusxasi;
- ota-onaning o'limi haqidagi guvohnomalar nusxasi yoki ota-onasining yoki ulardan birining ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi haqidagi sud qarori;

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Болалар тарбияси билан боғлиқ бўлган низоларни ҳал қилишда судлар томонидан қонунларни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги 1998 йил 11 сентябрдаги 23-сонли қарори.//Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. 1998.№3. -30-40 бетлар.

- ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdan va ta`minotdan bo`yin tovlaganligi haqidagi, ota-onalarga qidiruv e`lon qilinganligi haqidagi hujjatalr, ichki ishlar, davolash muassasalari va shunga o`xshash boshqa muassasalarning bolalarning ota-onasiz qolganligi to`g`risidagi dalolatnomalari;

- salomatligi to`g`risida tibbiy muassasaning xulosasi;

- vasiylik va homiylik organining bolani vasiylik yoki homiylikka olishni hohlayotgan oilaning maishiy turmush sharoitlari oila a`zolarining salomatligi va oilaning boshqa sharoitlari to`g`risidagi tekshiruv dalolatnomalari taqdim etilishi darkor³⁰.

Ota-onalik huquqini cheklash to`g`risidagi ishlarni ko`rishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta`minoti uchun aliment undirish maslasini hal qiladi.

Voyaga etmagan bolani, uning otasi yo onasini ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan sudning hal qiluv qarori bilan uni ota-onasidan (ularning biridan) olib qo`yilishi ota-onalik huquqini cheklab qo`yish hisoblanadi. Bunday qaror bolaning manfaatiga qaratilgan bo`lib, ota yoki onaning voyaga yetmagan bolasini shaxsan o`zi tarbiyalashi huquqi cheklanib qo`yiladi.

Ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmasdan avval voyaga yetmagan bolani otasi va onasidan yoki ularning biridan olish haqida qaror chiqarilganda sud, avvalo bolaning manfaatini hisobga oladi.

Ota-onalik huquqini cheklash bolaning ota-onasi (ulardan biri) ga nisbatan qo`llaniladi, ota-ona o`rnini bosuvchi shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar, tarbiyaga oluvchilar) ga nisbatan joriy qilinmaydi.

Ota yoki onaning ruhiy kasalligi, surunkali kasalga chalinganligi va boshqa og`ir holatlarni boshdan kechirishi sabablariga ko`ra, voyaga yetmagan bolaning tarbiyasi va hayoti uchun xatarli sharoit ota yoki onaning o`ziga bog`liq bo`lmagan sabablarga ko`ra vujudga kelishi mumkin. Bunday holda bolani ota yoki ona bilan qoldirish xavfli bo`ladi va shu sababdan ota-onalik huquqini cheklashga yo`l qo`yiladi.

³⁰ Ўзбекистон Республикасида Васийлик ва хомийлик тўғрисида Низом. Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелда 171-сонли қарори билан тасдиқланган.

Bundan tashqari ota va onaning yoki ulardan birining hulq-atvorida bola tarbiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatish xavfi tug`ilsa, ammo ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun etarli asos bo`lmasa, bunday holda bolani ota yoki ona bilan qoldirmasdan ota-onalik huquqi cheklanishi mumkin.

Ota-onalik huquqini cheklash to`g`risidagi sudning qarori chiqqandan keyin ham voyaga etmagan bolaning ota-onasi yoki ulardan biri o`zlarining hulq-atvorini yaxshilashga harakat qilmagan taqdirda, vasiylik va homiylik organi olti oydan keyin bunday ota yoki onani ota-onalik huquqidan mahrum etish to`g`risida sudga da`vo ariza bilan murojaat qilishlari shart. Bolaning manfaatini hisobga olib, vasiylik va homiylik organi olti oylik muddat o`tmasdan ham bunday ota-onani yoki ulardan birini ota-onalik huquqidan mahrum etish uchun sudga da`vo ariza bilan murojaat qilishga haqli³¹.

Voyaga yetmagan bolaning ota-onasining (ulardan birining) ota-onalik huquqini cheklash to`g`risidagi masalani ko`rib chiqish va hal qilish uchun sudga da`vo ariza bilan murojaat qilish huquqi voyaga yetmagan bolaning yaqin qarindoshlari, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari voyaga yetmagan bolaning ota-onasining yoki ulardan birining ota-onalik huquqlarini cheklash uchun sudga murojaat qilish huquqi maktabgacha ta`lim-tarbiya, umumta`lim muassasalari va voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmalariga yuklatilgan boshqa organlar va muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ota-onalik huquqini cheklash to`g`risidagi ishlar, albatta, prokurorning ishtirokida, shuningdek vasiylik va homiylik organlarining qatnashuvida ko`rilishi shart. Ota-onalik huquqini cheklash to`g`risida hal qiluv qarori chiqishi bilan birga, voyaga yetmagan bolaning ta`minoti uchun mablag` undirish masalasi ham sud tomonidan hal qilinishi kerak.

³¹ Voyaga etmagan bolalarни фарзандликка ва тарбияга олиш (патронат) тўғрисида Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелдаги 171-сонли қарори билан тасдиқланган.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onasi (ulardan biri) ning o'ziga nisbatan ota-onalik huquqi cheklangan bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi³².

Ota-ona ikkalasining ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda bola vasiylik va homiylik organi karamog'iga olib beriladi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, ota-onalik huquqi cheklangan ota-onaning yoki ulardan birining voyaga etmagan bolalarini shaxsan o'zlari tarbiyalash huquqlari cheklanib qo'yiladi. Bundan tashqari ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan davlat tomonidan bolali fuqarolarga beriladigan imtiyozlar va nafaqalardan foydalanish huquqlaridan mahrum bo'ladilar.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalashga qaratilgan bironta ham harakatni amalga oshira olmaydilar. Masalan, ular bolalari uchun o'quv muassasalari va ta'lim olish shaklini tanlash, ularning shaxsiy xarakteriga ega bo'lgan huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z bolalari nomidan qonuniy vakillik vazifasini bajarish kabi huquqlarga ega bo'lmaydilar.

Ota-onalik huquqini cheklanishi munosabati bilan ota-ona tarbiyasidan olingan voyaga yetmagan bolalarning turar-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki turar joydan foydalanish huquqi saqlanadi. Voyaga yetmagan bolalar ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onalari, shuningdek qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan o'zlarining mulkiy huquqlarini, shu jumladan, meros olish va boshqa huquqlarini saqlab qoladilar.

³² Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарҳлар. -Т.: Адолат. 2000.

Ota-onalarning har ikkalasining ham ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda, voyaga yetmagan bola tegishli tartibda joylashtirish uchun vasiylik va homiylik organiga beriladi.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onaning bolasi bilan ko'rishishi unga salbiy ta'sir ko'rsatmasa, bola bilan ko'rishishga ruxsat berilishi mumkin. Ota-onaning bola bilan ko'rishishiga vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yoxud vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola turgan muassasa ma'muriyatining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Ota-onalik huquqini cheklash oilaviy munosabatlarni butunlay tugatishni bildirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 85-moddasida ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishib turish huquqini hamma vaqt ham saqlab qoladi. Bunday bo'lishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu hol kelajakda ota-ona va bolalar o'rtasida ko'ngilga xush yoquvchi munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bunda huquqdan cheklashda ota-onalarning aybi bo'lmasligini ham hisobga olish kerak. Ammo, bu huquqni amalga oshirish vasiylik va homiylik organining nazorati ostida va faqat vasiylik va homiylik organining roziligi bilan ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishishi va muloqotda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi uchun, albatta, vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola tarbiyalanib turgan muassasa ma'muriyatining roziligi ham talab qilinadi.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi u bilan ko'rishib turishi, bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degna xulosaga kelgan holarda, vasiylik va homiylik organlari bundan ko'rishishga ruxsat bermasliklari yoki muloqotda bo'lishni man qilishlari mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir

holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'lsa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Ikkinchidan, bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning hulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

2.2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida, Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyada "...barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar", deb belgilanadi. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanishi, o'z ota-onasini bilishi, ularning g'amxo'rlikidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bu huquq bolaga barkamol voyaga etish, sog'lom tan va tafakkurda, hech narsaga alishib bo'lmaydigan ota-onaning ko'z qarog'ida bo'lib, ularning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lish, tashqi olam-atrof bilan o'ziga eng yaqin kishilar hisoblanmish ota-onalari orqali bog'lanish, bu tufayli atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarni asl holida tushunishi, idrok qilish va xulosa chiqarish, o'zgalari tajovuzidan, tahdididan munosib himoyalaniish imkonini beradi.

Konstitutsiyaning 64-moddasida aytilganidek, "ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar". Qonunchiligimizning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri shundaki, u bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma'noda agar oiladagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo'lsa, qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, Konstitutsiyada ham "davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiylikidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi..." deb belgilanadi.

Ana shunday hollarda bolani farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi. 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan va 1997 yil 1 martda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hisoblanib, ushbu holatni qayd etish Fuqarolik holati hujjatlari (FHDYO) ni yozish organlariga topshirilgandi. Mazkur kodeksga 1998 yil 25 dekabrda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hujjatlari sirasidan chiqarilib, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralish kabi fuqarolik holati hujjatlarida ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan ifodalanishi belgilandi.

Xo'sh, farzandlikka olish o'zi nima? U qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi?

Asosan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalar, ayni vaqtda faqat voyaga yetmagan bolalarnigina ularning manfaatlarini ko'zlab farzandlikka olinadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – vasiylik va homiylik organlaridir) tavsiyasiga ko'ra tuman (shahar) hokimi qarori bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari"da belgilanishicha, FXDYO organi qabul qilingan hujjatlar asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartishlarni kiritadi va tug'ilganlik haqida yangi guvoxnoma beradi. Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lmagan farq bilan o'zgartirilishi mumkin. Agar bola o'n yoshdan oshmagan bo'lsa, tug'ilgan joyi ham O'zbekiston Respublikasi doirasida o'zgartirilishi mumkin.

Voyaga etgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Quyidagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganlar;
- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- qasddan sodir qilingan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Qonun o'gay ota va o'gay ona tomonidan farzandlikka olish hollaridan tashqari holatlarda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmasligini shart qilib qo'yadi.

Farzandlikka olinuvchining qarindoshlari, farzandlikka oli-nuvchi oilasida yashayotgan shaxs, aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar, o'gay ota va o'gay ona, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar farzandlikka olishda ustunlik huquqiga egadirlar. Qoida tariqasida, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi. Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, bunday hollarda xotin (er)ning roziligi ham talab etiladi. Shuningdek, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi ham talab etiladi. Ammo quyidagi hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi:

- ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;
- ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Ayni vaqtda farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (shuningdek, qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Farzandlikka oluvchilar o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lsalar, ota-onalik huquqini suiste'mol qilayotgan bo'lsalar, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan

shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, farzandlikka olish bekor qilinadi.

Shuni ham eslatish o'rinliki, farzandlikka olish fuqarolarning mutloq erki hisoblanib, farzandlikka oluvchiga majbur qilinmaydi. Shuningdek, farzandlikka olish sirini oshkor qilish tegishli ravishda jinoyat qonunchiligi bilan ta'qib qilinadi.

Bolaning hayoti va sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bola farzandlikka olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi bolani olish to'g'risida hujjat qabul qilganidan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart.

Bolaning hayoti, sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganligi aniqlanganida, vasiylik va homiylik organlari, bolaning ahvolidan kelib chiqib, uning otasi (onasi) ni ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki cheklash masalasini hal qilish bilan birga bolani ushlab turgan shaxslardan, otasi yoki onasidan uni zudlik bilan ajratib olib, joylashtirish choralarini ko'rishga haqlidirlar.

Bolani uning otasi yoki onasidan, shuningdek, uni qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan olish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bolani ota-onasidan yoki qaramog'ida saqlab turgan shaxsdan ajratib olish uchun biron-bir asos bo'lsa, uning sog'lig'i yoki hayotiga oilada vujudga kelgan xavfli muhitning o'zi kifoya bo'ladi.

Bolani ota yoki onasidan yoxud uni qaramog'idan asrab turgan shaxsdan ajratib olgan vasiylik va homiylik organi zudlik bilan bu haqda prokurorga xabar qiladi va bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirish choralarini ko'radi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan bolani olish haqida tegishli

hujjatlar rasmiylashtirilgandan keyin etti kun ichida vasiylik va homiylik organi yoki prokuror da`vo ariza bilan sudga murojaat qilishi kerak.

Da`vo arizada bolagan nisbatan uning ota yoki onasini yoxud har ikkalasini ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqlarini cheklash to`g`risidagi masalani hal qilish talabini qo`yadi.

Demak, bolaga isbatan uning otasi yo onasini yoki har ikkalasini ota-onalik huquqidan mahrum etish masalasini hal qilishdan oldin, xavf ostida qolgan bolalarni olish va tegishli joyga joylashtirish huquqi vasiylik va homiylik organiga berilgan.

Ayrim hollarda voyaga yetmagan bolalarning otasi yoki onasining ruhiy kasalligi ularning oilada yashashi va normat tarbiyala-nishi uchun imkoniyat bermaydi. Bunday ota-onalarni ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun hamma vaqt yetarli asos bo`lavermaydi. Ular faqat kasalliklari tufayli bolalarini tarbiyalash bo`yicha majburiyatlarini ado etmaydilar. Ammo voyaga yetmagan bolalarni bunday oilada qoldirish ham ular uchun xavfli muhitni tug`diradi. Bunday holarda, sud bolaning ota-onalarini ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan uni olib, tegishli tarbiya muassasalariga joylashtirish haqida qaror chiqarishi mumkin.

Bolalarni ota-onasidan yoki qaramog`ida bo`lgan boshqa shaxslardan olish masalasi sud tomonidan da`vo ishlarini yuritish tartibida ko`riladi. Bolani olish haqidagi da`vo ariza vasiylik va homiylik organi tomonidan, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan, bolani vasiy yoki homiysi, ota-onalardan biri va prokuror tomonidan berilishi mumkin. Bunday da`vo ishlari albatta, vasiylik va homiylik organi hamda prokurorning ishtirokida ko`rilishi kerak.

Sud tomonidan bolalar tarbiyasi bilan bog`liq nizolar ko`rilayotganda, bolaning himoyasi uchun kim da`vo taqdim qilganligidan qat`i nazar, ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi kerak.

Vasiylik va homiylik organi bolaning hamda uni o`z tarbiyasiga berishni talab qilayotgan shaxs (shaxslar) ning turmush sharoitlarini tekshirishi va

tekshirish natijalarini hamda unga asoslangan nizo mohiyatiga oid xulosasini sudga taqdim qilishi shart.

Ota-onadan birining yoki har ikkalasining o'rtasida vujudga kelgan bola tarbiyasi bilan bog'liq nizolar voyaga yetmagan bolalar tarbiyasini nazorat qiluvchi va bolalar hukuqini himoya qilish majburiyati zimmlariga yuklatilgan organlarning, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining, shuningdek prokurorning talabiga asosan ko'riladi.

Birinchi navbatda bola tarbiyasiga oid nizolar vasiylik va homiylik organi tomonidan ko'rilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda vasiylik va homiylik organlarining bola tarbiyasiga doir qarorlari bajarilmagan hollarda, masala sud tartibida ko'rib chiqiladi.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onalarning voyaga yetmagan o'z bolalarini tarbiyalash bilan bog'liq majburiyatlarini qanday bajarayotganlari ustidan nazorat olib borish bilan birga, ularga o'z ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadilar.

Zarur hollarda voyaga etmagan bolalarga o'z huquqlari va majburiyatlarini himoya qilishda yordamlashadilar.

Vasiylik va homiylik organlari nafaqat o'zlari qo'zg'atgan ishlari bo'yicha, balki boshqalar tomonidan qo'zg'atilgan ishlarni ko'rilishida, bolalarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish borasida sud jarayonida ishtirok etib, xulosa berishga majburdirlar.

Voyaga yetmagan bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq barcha nizolarni sudda ko'rish jarayonida vasiylik va homiylik organlari ishtirok etib, bola tarbiyasida turgan shaxsning va bolani o'z tarbiyasiga berishni talab qilgan shaxsning turmush sharoitlarini, xulq-atvorlarini, bolaga yetarli tarbiya berish imkoniyatlari va qobiliyatlari bor-yo'qligini tekshirib, nizo mohiyatiga oid asoslantirilgan xulosani taqdim etishlari kerak.

Sudlarda ko'riladigan oilaviy munosabatlarga doir fuqarolik ishlarining ancha qismini bola tarbiyasiga oid ishlar tashkil etadi. Bunday ishlarni ko'rish bilan sud, nafaqat, ota-onalarning huquq va majburiyatlarni aniqlaydi, balki voyaga

yetmagan bolalarning takdirini belgilovchi masalalarni, bolaning manfaatlarini hisobga olib, uni u bilan yashashi, uning tarbiyasini kimga ishonish mumkinligi masalasini ham hal qiladi.

Voyaga yetmagan bolalar tarbiyasi taqdirini hal qilishda ularning o'zlari o'z huquqlarini himoya qila olmaydilar, chunki hali muomala layoqatiga ega emaslar. Ularning ota-onalari esa, sudda taraf sifatida ishtirok etib, o'zlarining shaxsiy huquq va manfaatlarinigina himoya qiladilar. Ularning harakati voyaga etmagan bolalarning huquq va manfaatlarini bilan hamma vaqt ham mushtarak bo'lavermaydi va ular bolalarni tegishlicha tarbiyalashni ta'minlay olmaydilar.

Shuning uchun voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalashga doir ishlarni ko'rishda vasiylik va homiylik organlarining ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ular davlatning vakolatli organi sifatida ota-onalar tomonidan va boshqa shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash vazifalarini bajarish ustidan nazorat olib boradilar.

Quyidagi nizolar bola tarbiyasi bilan bog'liq hisoblanadi: alohida-alohida turgan ota-onalar o'rtasida voyaga yetmagan bolalarning kim bilan turishi masalasiga doir nizolar; qonunga asoslanmagan yoki sud qarori bilan belgilanmagan tarzda noqonuniy ravishda ushlab turilgan bolalarni qaytarib olish haqidagi ota-onalarining talablari; ota-onalik huquqidan mahrum qilish; ota-onalik huquqini tiklash; ota-onalik huquqini cheklash; ota-onalik huquqini cheklashni bekor qilish; ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan ota-onasidan bolani olish; farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish; farzandlikka olishni bekor qilish va boshqa ishlar.

Voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash huquqi bilan bog'liq nizolarni, voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash uslubi to'g'risidagi ota-onalar o'rtasidagi nizolar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Bolani tarbiyalashda qo'llaniladigan uslub, ayrim hollarda, bolani tarbiyadan olish uchun asos bo'lishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organlarining sud jarayonida ishtirok etishi taraflarning, ya'ni ota-onalarning turmush sharoitini va ulardagi bolalar tarbiyasi uchun yaratilgan imkoniyatlarni tekshirib xulosa berish va ish bo'yicha tegishli fikr bildirish bilan chegaralanadi.

Bunday tekshirish va xulosa berish sudning topshirig'i bilan yoki vasiylik va homiylik organining o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, birinchidan, ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqlari cheklanishiga asos bo'lgan holatlar barham topsa, sud ota-onaning (ulardan birining) da`vosiga binoan, bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Ikkinchidan, ayni vaqtda bolani qaytarish uning manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olib, da`voni qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

XULOSA

Mazkur malakaviy bitiruv ishi yuzasidan kuyidagi taklif va xulosalarni berish imkonini berdi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65 yoki 66-moddasining 2-bandi davomiga "Ota-onalik huquqi qonunda belgilangan tartibda himoya qilinadi" deb kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuningdek, Oila kodeksining 80-moddasi ikkinchi qismiga, shuningdek "Voyaga etgan farzandning (bolaning) da'vosiga binoan" degan normalar bilan to'ldirilsa yanada ham qonunchilik takomillashgan bo'lur edi.

Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rishda vasiylik va homiylik organlariga keng vakolat berilgan, lekin ularning faoliyati amaliyotda sust darajada ko'rinadi. Shuning uchun:

birinchidan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq ishlar oila-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan turkumdagi ishlarga kiradi.

Ikkinchidan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, u har qachon va har qanday holatda ham voyaga yetmagan bolalarni huquqlarini doimo va muntazam ravishda himoya qiladi.

Uchinchidan, ota-ona (ulardan biri) ning ota-onalik huquqlari cheklanishiga asos bo'lgan holatlar barham topsa, sud ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan, bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Ayni vaqtda bolani qaytarish uning manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olib, da'voni qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

To'rtinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarni ta'minlash majburiyatidan ozod etmaydi. Shu tufayli da'vo qo'zg'atilgan-qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar, birgalikda hal etilishi shartligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ko'rsatib o'tilgan. Biz ham ushbu holatni to'la qo'llab-quvvatlaymiz.

Beshinchidan, ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmasdan avval voyaga yetmagan bolani otasi va onasidan yoki ularning biridan olish haqida qaror chiqarilganda sud, avvalo bolaning manfaatini hisobga oladi.

Oltinchidan, ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar albatta, prokurorning ishtirokida, shuningdek, vasiylik va homiylik organlarining qatnashuvida ko'rilishi shart. Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqishi bilan birga voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun mablag' undirish masalasi ham sud tomonidan hal qilinishi kerak.

Yettinchidan, ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ayni vaqtda ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi. Shuningdek, ota-onalik huquqini cheklash oilaviy munosabatlarni butunlay tugatishni bildirmaydi.

Ayni vaqtda ushbu institut bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi jihatlarni ham aytish mumkin:

Sud amaliyotida ko'plab uchraydigan holatlardan biri shuki, ushbu institut mahalliy mentaliletidan kelib chiqib, ya'ni istihola qilinib sud tartibida ko'rilishi darajasigacha bormayapti. Mahalla, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar o'rtasida ahloq normalari bilan, jismoniy tuyg'ular bilan hal qilinayapti-da, buning oqibatida bolalar manfaatlari qo'pol ravishda poymol qilinyapti.

Aslida esa, oilaviy munosabatlarda qonun bola manfaatlarini ustuvor deb biladi.

Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onalar yoki ulardan biri o'z xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartirganda yoxud mutassil ichkilikbozlik yoinki giyohvandlik qusurlarini tashlagandan keyin ota-onalik huquqidan mahrum qilingan deb topilgan shaxslarni qayta asl huquqiy holatiga qaytarish qiyin kechmoqda. Ayniqsa, bunda protsessual qonun talablari qo'pol ravishda buzilmoqda. Ushbu holatlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, uni xorijiy munosabatlarning

turdosh munosabatlari bilan solishtirib, uning oqilona yechimini topishdan iborat, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.-T.:O'zbekiston.1996 y.-364 b.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.: O'zbekiston.1998 y.-412 b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.T.:O'zbekiston.1992 y.
4. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston.1993 y.
5. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.T.:O'zbekiston.1995 y. 24 6.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston. 1997 y. -326 b.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston. 2000 y. -112 b.

II. Qonun hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.–T.: Rasmiy nashr. 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. –T.: Adolat.1998.
4. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi.–T.: Adolat. 1998.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –T.: Adolat. 1998.
6. O'zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. –T.: Adolat.1995.

7. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.–T.: Adolat. 1999.
8. O'zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida”gi qonuni. Hujjatlar. –T.: O'zbekiston. 1991. -10 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Mulkchilik to'g'risidagi 1990 yil 31 oktyabr qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi. 1990 yil, №31-33, 371-modda.
10. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi qonuni. 1995 yil 22 dekabr.
11. Meros huquqiga oid qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2000 yil 22 dekabrda Plenumi qarori. // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2000 yil 22 dekabrda Plenumi qarorlari. –T.: 2001.
12. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2005 yildagi hal qiluv qarori. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudi arxividan.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. F.M.Otaxo'jaev. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. -T.: TDYUI. 2005.
2. Jamolov B., Boboqulov A. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash. –T.: Adolat. -344 b.
3. Zokirov I. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi.-T.: Adolat.1996.-296 b.
4. Комментарий к Гражданскому Кодексу Российской Федерации Ч1./отв.ред. О.Н.Садиков-М.: Юринформцентр.1997.-316 с.
5. Мильштейн Н. Сто вопросов и сто ответов по гражданскому праву. –Т.: Узбекистан. 1990. -158 с.

6. Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1997.
7. H.R.Rahmonqulov. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. -T.: TDYUI. 2003.-49 b.
8. Saidov A.X. Xalqaro huquq. –T.: Adolat. 2001. -154 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. // H.Rahmonqulov, I.Zokirovlarning umumiy tahriri ostida-T.: Adolat.1999.
10. Халфина Р.О. Общее учение о правоотношении. –М.: Юрид лит. 1974. -350 с.
11. Muxamedov R. Meros huquqi. -T.:1998.-121 b.
12. Караходжаева Д.М. Гражданское право: субъект, объект и содержание правоотношения в условиях рынка. -T.: ТДЮИ.2004.
13. В.Mirboboyev. Konstitutsiyaviy sud tomonidan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish. // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Axborotnomasi. 1998. №2. -63-6.
14. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T.: O'zbekiston. 2000.
15. Антокольская М.В.Семейное право. Учебник. -М.: Юристь. 1996. - 366 стр.
16. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. Под общей редакцией доктора юридических наук. П.В.Крашениникова и кандидата юридических наук. Заслуженного юриста Российской Федерации. П.И.Седугина. -М.: Издательская группа ИНФА. М.-Норма. 1997. -384стр.
17. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. (Отв. ред. И.М.Кузнецова. 2-е изд. перераб и доп. -М. Юрист. 2000. -568 стр.
18. F. Otaxo'jayev. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. –T.: O'zbekiston. 1995 y.
19. F.Otaxo'jayev. Nikoh va ajralish. -T.: O'zbekiston. 1991 y.

20. Нечаева А.М. Семейное право. Курс лекций. -М.: Юрист. 1998. -336 стр.
21. Пчелинцева Л.М. Семейное право России. Учебник для вузов. -М.: Издательская группа. Норма-Инфра. -М.: 1999. -672 стр.
22. SH. Yuldasheva. Farzandlikka olish. // Hayot va qonun. 2002. №5.
23. Z.Esonova. Aliment huquq va majburiyatlari. // Inson va qonun. 2004. №5.
24. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. Ommabop yuridik ma`lumotnoma. Oila huquqi. -T.: O'zbekiston. 2000.